



RANG KONSEPTLARINI LINGVOMADANIY TADQIQ ETISHDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR

Arabova Gulinur

Phd doktoranti, QarDU

Annotatsiya: Rang konseptlarini lingvomadaniy tadqiq etish pedagogikada muhim o'rin tutadi. Ranglar til va madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning ma'nosi turli madaniyatlarda farq qiladi. Har bir rang turli hissiyotlar, holatlar va tasavvurlarni ifodalaydi. O'quvchilarga ranglarning lingvistik va madaniy kontekstda o'zgarishini tushuntirish, ularning til va madaniyatlararo tafovutlarni anglashiga yordam beradi. Pedagogik jihatdan, ranglar o'quvchilarning kreativlik va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, ranglarning tilga yoritilishi va pedagogik amalda ishlatilishi qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Shu sababli, ranglarning pedagogik tizimda o'qitilishi metodologik yondashuvni talab qiladi.

Kalit so'zlar: rang konsepti, lingvomadaniyat, pedagogika, til va madaniyat, ranglar, kreativlik, metodologiya.

Abstract: The study of color concepts in linguocultural research plays an important role in pedagogy. Colors are closely connected to language and culture, with their meanings varying the shifts in the linguistic and cultural context of colors helps students understand the cultural and linguistic differences. From a pedagogical perspective, colors play a crucial



role in developing creativity and logical thinking among students. However, the interpretation and application of colors in teaching can present challenges. Therefore, a methodological approach is required for the effective teaching of color concepts in educational systems.

Keywords: color concept, linguoculture, pedagogy, language and culture, colors, creativity, methodology.

Dunyoda turli millatlar bor ekan, ular bilan turli tillar va turlicha madaniyatlar yashaydi. Biror millat tilini o'rganish bilangina u millat vakili bilan erkin va ravon munosabatga kirishib bo'lmaydi. Albatta, buning uchun o'sha millat madaniyatini ham o'rganish, ayniqsa, uni til bilan bog'langan holda o'rganish orqali yuqoridagi natijaga erishish mumkin. Shu jarayondagi tilni madaniyat bilan va madaniyatni til bilan bog'lab o'rganadigan soha bu "lingvokulturologiya"dir. "*Lingua*" - lotincha - *language*- til, "*culture*" - ruscha - культура (lotin tilidan - *colereculture*) - madaniyat, logiya esa - lotincha "*logos*" so'zidan olingan bo'lib, bilim degan ma'noni anglatadi va umumiy - "til va madaniyatni o'zaro bog'liqlikda o'rganuvchi fan" ma'nosini anglatadi.

"Lingvokulturologiya" kitobi muallifi - V.A. Maslova¹. Uning aytishicha, ana shu fikr asosida XX-asrning 90-yillarida paydo bo'lgan va tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi deb aytsa bo'ladigan yangi lingvokulturologiya fani yuzaga keldi. Bundan ko'rinib turibdiki, "lingvokulturologiya" fani tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarining o'zaro qo'shilishuvi yoki aloqadorligidan yuzaga kelgan fandır.

Lingvokulturologiya tilshunoslik va kulturologiyaning o'zaro to'qnashuvi asosida paydo bo'lgan murakkab ilmiy fan yo'nalishidir. U madaniyat bilan tilning o'zaro



bog'liqligi va ta'sirini, tilni madaniyatning fenomeni sifatida o'rganadi. Bu milliy til prizmasi orqali dunyoni ma'lum darajasida ko'rish, tilning ma'lum millatning aql va madaniyati orqali namoyon bo'lishidir. SHuni alohida e'tyrof etish joizki, zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasida lingvokulturologiya bugungi kunda eng dolzarb yo'nalishlardan hisoblanadi. Tilning semantik birliklarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlovchi va "dunyoning lisoniy manzara"sini aks ettirishdagi madaniy-etnik komponent lingvokulturologik kontseptlarni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvomadaniyatshunoslik fanining asosiy vazifasi esa til va madaniyatni o'zaro bog'liqlikda tadqiq qilib, til va dunyoning lisoniy manzarasini tasvirlab berishdan iborat. Uning vazifasiga til va madaniyat munosabatlarini, tilda madaniyatning aks etishini, madaniyatlararo muloqotni o'rganish kiradi. Bu masalalar ilgari ham ma'lum darajada o'rganilgan, lekin hozirda chuqur va ilmiy ravishda o'rganish imkoniyati tug'ildi, chunki yangi tadqiqot metodlarini yuzaga keltirdi. Shu o'rinda madaniyat nimaligini va unga berilgan ta'riflarni ham qisqacha ko'rib chiqsak, "lingvokulturologiya" fani tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarining o'rtasida turgandek ko'rinsada, madaniyatshunoslikka ko'proq yaqindir.

Madaniyat bir guruh odamlarini birga jipslashtiruvchi "kleydir" deb yozadi H.Douglas Brown. Larson, Smalley (1972) esa madaniyatni qilinishi kerak bo'lgan izlanishlar modeli sifatida ta'riflashadi.

Rang konseptlarini lingvomadaniy nuqtayi nazardan o'rganish nafaqat tilshunoslik va madaniyatshunoslik, balki pedagogika sohasida ham muhim ahamiyatga ega. Ranglarning ta'lim jarayonidagi roli talabalarning dunyoqarashi, tafakkuri va madaniy ongini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu bo'limda rang konseptlarining pedagogik



ahamiyati, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri va amaliy qo'llanilish yo'nalishlari haqida fikr yuritiladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, rang konseptlari til o'rgatish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va o'quvchilarning idrok jarayonlarini faollashtirishda quyidagi jihatlar orqali namoyon bo'ladi:

Rang konseptlari orqali o'quvchilar turli tillardagi rang atamalarining semantik va madaniy farqlarini o'rganadi. Bu esa ularga nafaqat til, balki shu til sohiblari madaniyatini ham chuqur anglash imkoniyatini beradi. Masalan, ingliz tilida "blue" tushkunlik (sadness) bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida "ko'k" rang tabiat va tinchlik ramzi sifatida tushuniladi. "Til shunchaki so'zlardan iborat emas. U madaniyat, an'ana, jamiyatni birlashtiruvchi omil va shu jamiyatni shakllantirgan tarixdir." [Chomsky, N. (2000). *New Horizons in the Study of Language and Mind*. Cambridge: Cambridge University Press]

Til o'rganish jarayoni madaniy va vizual elementlar bilan bog'liq. Ranglar madaniyatga xos tushunchalarni o'zlashtirishda yordam beradi. Rang konseptlari bolalar va kattalar tafakkurida vizual tasavvurlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ranglar yordamida bilim berish vizual xotirani kuchaytiradi, o'quvchilar ma'lumotlarni tezroq eslab qoladi va tahlil qila oladi. Shuning uchun pedagogik metodika va dars ishlanmalarida ranglardan foydalanish tavsiya etiladi.

Amerikalik pedagog David Ausubel xorijiy til o'rganish jarayonida vizual vositalarning, jumladan, ranglarning ahamiyatini o'rganib chiqdi. Unga ko'ra: Ranglar yordamida yangi so'zlar va tushunchalar yanada tezroq yodda qoladi. Rangi bilan ajratilgan matnlar (masalan, yangi so'zlar yoki grammatik qoidalar) talabalar uchun tushunarli va esda qolarli bo'ladi. Til o'rganishda diagrammalar, rangli jadvallar va vizual materiallardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi.



[Ausubel, D. P. (1968). Educational Psychology: A Cognitive View. New York: Holt, Rinehart & Winston.]

Rang konseptlari nutqni boyitishda muhim ahamiyatga ega. Ranglar bilan bog‘liq metaforalar, iboralar va o‘xshatishlar o‘quvchilar nutqining emotsional va ta’sirchan bo‘lishiga yordam beradi. Masalan, “qora kunlar” (og‘ir hayotiy davr), “oq yo‘l” (muvaqqafiyat tilash) kabi iboralar madaniy va lingvistik tafakkurning o‘ziga xos ifodalaridir. John Sweller vizual idrok va o‘rganish samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib chiqdi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra: Rangli materiallar e’tibor markazlarini belgilash va muhim ma’lumotlarni ajratib ko‘rsatishga yordam beradi. Ranglar o‘quvchining xotira jarayonlarini faollashtirib, xorijiy so‘zlarni osonroq yodlashga imkon beradi. Didaktik materiallarni ranglar yordamida tizimli taqdim etish til o‘rganish jarayonini tezlashtiradi. [Sweller, J. (1988). Cognitive Load During Problem Solving: Effects on Learning. Cognitive Science, 12(2), 257–285]

Rang konseptlarini pedagogik jihatdan o‘rganish til o‘rganuvchilar va tarjimonlar uchun katta foyda beradi. Chunki turli tillarda ranglar turlicha semantik maydonga ega bo‘lib, noto‘g‘ri tarjima kommunikativ xatoliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, rus tilidagi “белая ворона” (oq qarg‘a) iborasi o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, tushunarsiz bo‘lib qoladi, chunki bu ibora “atrofdagilardan farq qiluvchi odam” degan ma’noni anglatadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol ta’lim metodlari, vizual materiallar va didaktik o‘yinlar muhim rol o‘ynaydi. Ranglar yordamida vizual ta’lim materiallarini shakllantirish o‘quvchilarning diqqatini jamlashga va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, boshlang‘ich sinflarda harflar va raqamlarni ranglarga bog‘lab o‘rgatish ularning tez eslab qolishiga yordam beradi. Rang konseptlarining xorijiy til o‘rganish jarayonidagi ahamiyati ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Amerikalik tilshunos Stephen Krashen



xorijiy til o'rganishda vizual ta'sirning ahamiyatini ta'kidlagan. Unga ko'ra: Ranglar yordamida matnni kontekstda tushunish osonlashadi. Rang bilan ajratilgan so'z va iboralar o'quvchilarning xotirasida uzoqroq saqlanadi. Vizual ta'lim vositalari (masalan, rangli kartochkalar yoki grafiklar) til o'rganish jarayonini tezlashtiradi.[Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon]

Tadqiqotlarga ko'ra: Ranglar til o'rganish jarayonida xotirani kuchaytiradi. Rangli materiallardan foydalanish so'z boyligini tezroq o'zlashtirishga yordam beradi. Vizual va rangli yondashuvlar didaktik metod sifatida ta'lim samaradorligini oshiradi. Shunday qilib, xorijiy til o'qitishda rang konseptlaridan foydalanish innovatsion pedagogik yondashuvlardan biri bo'lib, o'quvchilar uchun qiziqarli va samarali ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Ranglarning psixologik ta'siri ta'lim jarayonida muhim omillardan biridir. Tadqiqotlarga ko'ra, ma'lum ranglar inson kayfiyatiga, motivatsiyasiga va diqqatni jamlashiga ta'sir qiladi. Masalan, yashil va ko'k ranglar xotirjamlik va barqarorlik hissini uyg'otsa, qizil va sariq ranglar e'tibor jalb qilish va faollikni oshirishga xizmat qiladi. "Odamlar faqatgina so'zlardan emas, balki so'zlar va rasmlar birgalikda taqdim etilganida yaxshiroq o'rganadilar." [Mayer, R. E. (2001). Multimedia Learning. Cambridge: Cambridge University Press] Amerikalik psixolog Richard Mayer vizual ta'limning inson miyasi uchun qanchalik muhim ekanini o'rgangan. Uning fikricha: Ranglar yordamida axborotning vizual tuzilishi xotirani yengillashtiradi. Xorijiy til o'rganishda grafik va rangli kodlash usullari axborotni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi. Didaktik materiallarni ranglar yordamida to'g'ri tuzish o'quvchilarning tushunish jarayonini optimallashtiradi.

Rang konseptlari asosida madaniyatlararo ta'limni shakllantirish: Madaniyatlararo kommunikatsiya va chet tillarni o'rganishda rang konseptlari alohida ahamiyatga ega. Madaniyatlararo ta'lim zamonaviy globallashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etib, turli



xalqlarning til va madaniyatlarini o‘zaro tushunish va hurmat qilishga xizmat qiladi. Rang konseptlari esa ushbu jarayonda muhim lingvomadaniy vosita bo‘lib, madaniyatlararo farqlarni tushunish va ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Har bir til o‘ziga xos madaniy kontekstga ega bo‘lib, undagi rang nomlarining tushunilishi ham farqlanadi. Shu sababli, rang konseptlarini o‘rgatish orqali madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish mumkin. Masalan: O‘zbek madaniyatida oq rang poklik va ezgulik ramzi bo‘lsa, Xitoyda bu motam va o‘lim bilan bog‘liq. G‘arb madaniyatida yashil rang moliyaviy muvaffaqiyatni anglatadi, sharqiy madaniyatlarda esa hayotiylik va o‘sish ramzi hisoblanadi. Ushbu farqlarni tushuntirish o‘quvchilarga chet tillarni o‘rganishda yanada chuqur anglash imkonini beradi. O‘quv jarayonida ranglarning madaniy ma’nolarini tushuntirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

Vizual ta’lim usullari: rangli tasvirlar, grafiklar va multimedia texnologiyalaridan foydalanish.

Madaniy solishtirish: bir xil rangning turli madaniyatlardagi ma’nolarini solishtirish orqali o‘quvchilarga turli jamiyatlarga oid bilim berish.

Interaktiv mashg‘ulotlar: talabalar ranglar bo‘yicha tadqiqot olib borib, ularning madaniy ma’nolarini tahlil qilishi. Kartalar va diagrammalar – turli mamlakatlarda ranglarning ma’nolarini taqqoslash uchun. O‘yinlar va testlar – ranglar asosida madaniy tushunchalarni sinovdan o‘tkazish.

Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) – madaniyatlarni real muhitda tushunishga yordam beruvchi vositalar.

Ranglarni kontekstual tahlil qilish mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi. Lingvistik va semantik bog‘lanishlar mustahkamlanadi.



Turli madaniy kontekstlarni tushunish orqali o'quvchilar boshqa xalqlar bilan samarali muloqot qila oladilar. Madaniyatlararo hurmat va bag'rikenglik shakllanadi. Ranglar bilan bog'liq didaktik materiallar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Rangsiz matnlarga qaraganda rangli materiallar bilan ishlash jarayoni ko'proq motivatsiya beradi. Rang konseptlari madaniyatlararo ta'limni rivojlantirishda muhim vosita bo'lib, ular: Lingvomadaniy tafakkurni rivojlantiradi. Madaniyatlararo kommunikatsiyani osonlashtiradi. Ta'lim samaradorligini oshirib, o'quvchilarni interaktiv va qiziqarli jarayonga jalb qiladi.

Pedagogika kontekstida rang konseptlarini lingvistik va madaniy nuqtayi nazardan o'rganish. Pedagogika sohasida rang konseptlarini lingvistik va madaniy jihatdan o'rganish murakkab masalalardan biri bo'lib, bu jarayon til o'zlashtirish, madaniy ong va ta'lim metodikalarini o'z ichiga oladi. Ushbu bo'limda rang konseptlarining ta'limdagi ahamiyati, ularning o'quvchilarning kognitiv va madaniy rivojlanishiga ta'siri hamda pedagoglarning ushbu ta'sirlarni qanday inobatga olishlari kerakligi tahlil qilinadi.

Ranglar faqat biologik qabul qilinadigan hodisa emas, balki chuqur madaniy kontekstlarga bog'langan tushunchalardir. Har bir madaniyatning ranglarni tasniflash va talqin etish uslubi shu madaniyat vakillarining ushbu konseptlarni idrok etishiga ta'sir qiladi. Masalan, rus tilida ko'kning turli tuslari uchun alohida atamalar mavjud bo'lsa, ingliz tilida bunday tafovut yo'q va barcha tuslar "blue" atamasi bilan ifodalanadi. Bunday farqlar ranglarni idrok qilish jarayonida turli xil kognitiv mexanizmlarning shakllanishiga olib keladi.

Ranglar, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida asosiy o'quv vositasi sifatida ishlatiladi. Ular farqlash, tasniflash va hatto hissiy ifodalash konseptlarini tushuntirishda muhim o'rin tutadi. Biroq, ranglar bilan bog'liq lingvistik va madaniy jihatlar inobatga



olinmasa, o'quv jarayoni to'laqonli bo'lmashligi mumkin. Ushbu bo'limda rang konseptlari ta'lim strategiyalariga qanday ta'sir qilishi tahlil etiladi.

Sapir-Whorf gipotezasiga ko'ra, insonning dunyoni idrok etishi, jumladan, ranglarni farqlashi uning gapiradigan tiliga bog'liqdir. Masalan, ayrim tillarda ranglar kengroq kategoriyalar bilan ifodalanadi, boshqalarida esa ingliz tilida mavjud bo'lmagan aniq atamalar orqali ifodalanadi. Ushbu farqlar shunchaki lingvistik emas, balki kognitiv jarayonlarga ham ta'sir qiladi.

Turli madaniyatlarda ranglar turlicha ma'no kasb etadi. Masalan, qizil rang ayrim jamiyatlarda xavfni anglatishi mumkin, boshqalarda esa baxt va farovonlik timsoli bo'lishi mumkin. Ranglarning madaniy interpretatsiyasi insonlarning ijtimoiy muhit, san'at va ta'lim jarayonlaridagi ranglarga bo'lgan munosabatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ko'pmadaniyatli sinflarda ta'lim berishda ushbu tafovutlarni inobatga olish juda muhimdir.

O'qituvchilar o'quv dasturlarini va darslik materiallarini ishlab chiqishda ranglarning madaniy ma'nolari va lingvistik xilma-xilligini hisobga olishlari lozim. Masalan, sinfxonalarda ranglardan foydalangan holda baholash tizimlari (masalan, xatolarni qizil bilan belgilash, muvaffaqiyatni yashil bilan ifodalash) turli madaniy kelib chiqishga ega o'quvchilarga turlicha ta'sir qilishi mumkin.

O'quvchilarning madaniy tafovutlar haqidagi bilimni oshirish uchun rang konseptlarini turli madaniy va lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish muhimdir. Masalan, Afrika tillarining aksariyatida "ko'k" uchun alohida so'z mavjud emas va ushbu rang "ko'k-yashil" spektri doirasida ifodalanadi.

Ranglardan ta'lim jarayonida vizual taniqlikni oshirish bilan birga, mantiqiy fikrlash va kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida ham foydalanish mumkin. Turli tillar va madaniyatlarda ranglarning tasniflanishidagi farqlar ta'lim jarayonida



qiyinchilik tugʻdiradi. Standart rang terminologiyasi barcha oʻquvchilarning lingvistik va madaniy realligiga mos kelmasligi mumkin.

Turli lingvistik kelib chiqishga ega oʻquvchilar rang konseptlarini toʻliq anglab yetishi uchun inklyuziv taʼlim uslublarini ishlab chiqish zarur. Koʻpgina pedagoglar ranglar bilan bogʻliq lingvistik va madaniy tafovutlarni hisobga olish boʻyicha maxsus tayyorgarlikdan oʻtmagan. Oʻqituvchilar uchun madaniyatlararo kompetensiya va lingvistik xilma-xillik boʻyicha treninglar tashkil etish bu muammoni hal qilishga yordam berishi mumkin.

Oʻqituvchilar rang konseptlarini oʻquvchilarning madaniy va lingvistik xususiyatlarini inobatga olgan holda oʻrgatishlari mumkin. Bu jarayonda hikoyalash, vizual sanʼat va guruh muhokamalari kabi interaktiv usullardan foydalanish tavsiya etiladi.

Koʻp tilli sinflarda rang konseptlarini tushuntirish uchun ikki yoki undan ortiq tillardan foydalanish samarali boʻlishi mumkin.

Xulosa qilib aytgand turli madaniyat vakillariga oid ranglar tasnifini tushuntirish uchun rang kodlari, raqamli media vositalari va infografikalar kabi vizual materiallardan foydalanish taʼlim samaradorligini oshiradi. Rang konseptlarini lingvistik va madaniy jihatdan oʻrganish pedagogik tadqiqotlar uchun muhim yoʻnalishlardan biridir. Til va madaniyatning ranglarni idrok etishdagi oʻrni aniqlangani sayin, pedagoglar yanada inklyuziv va samarali taʼlim strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega boʻladilar. Kelajakda ushbu mavzuni lingvistika, antropologiya, kognitiv psixologiya va pedagogika yoʻnalishlari kesishgan holda tadqiq etish madaniy jihatdan mos va samarali taʼlim usullarini rivojlantirishga yordam beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Alekseeva, E. N. (2000). *Lingvistik madaniyat: til, tafakkur, va identifikatsiya*. Moskva: Yazyki russkoy kultury.
2. Wierzbicka, A. (1999). *Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals*. Cambridge University Press
3. Kärner, C. (2012). *The conceptualization of color in languages: A study in linguistic and cultural comparison*. Frankfurt am Main: Peter Lang.
4. Berlin, B., & Kay, P. (1969). *Basic Color Terms: Their Universality and Evolution*. University of California Press
5. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
6. Rosch, E. (1973). *Natural categories*. Cognitive Psychology, 4(3), 328-350.
7. Vygotsky, L. S. (1986). *Thought and Language*. MIT Press